

## **YANGI O'ZBEKISTON-INSON QADRI USTUVOR BO'LGAN JAMIYAT VA XALQPARVAR DAVLATDIR**

Akbayeva Dilnoza Abduazizovna

Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi,

Toshkent viloyat Ohangaron shahar bo'linmasi bosh mutaxassisi

### **Annotatsiya:**

Maqolada inson qadrini ulug'lash va faol mahalla yilida mahalla institutining katta imkoniyatlaridan samarali foydalanish, uning vakolatlarini yanada kengaytirish, mahallani jamiyatimizning hal qiluvchi bo'g'iniga aylantirish vazifasi bo'yicha taraqqiyot strategiyasida belgilangan muhim vazifalar va ularning ijrosi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** Taraqqiyot, inson qadri, mahalla, xalq, qadriyat, tarbiya.

Keyingi yillarda O'zbekiston xalqparvar, insonparvar davlat sifatida tilga tusha boshladi. Bunga yurtimizda kam ta'minlangan, nochor oilalarni qo'llab-quvvatlash va kambag'allikni qisqartirish yuzasidan amalga oshirilayotgan ishlarni misol qilib ko'rsatsak, o'rinli bo'ladi. Yangi yil arafasida Mehribonlik uylarida tarbiyalangan bolalar davlat tomonidan yangi uylar bilan ta'minlandi. Faol mahalla bu - katta tushuncha. Faollik faqat mahalla hududini, infratuzulmasini obod qilish emas, balki shu mahallada yashovchi aholini, keksa-yu yoshni jamiyatda faol bo'lishi, yurtga nafi tegishi, mamlakat taraqqiyotiga hissa qo'shishi, bilimli va salohiyatlari bo'lishi demakdir. Har bir fuqaro o'z mahallasi bilan faxrlanishi kerak. Kamchiliklar yoki muammolarni ko'tarib chiqish bilan cheklanib qolmasdan uni bartaraf etish haqida bosh qotirish lozim. Barchamizga ma'lumki, 2020 yilda yuzaga kelgan holat – koronavirus pandemiyasi, global inqiroz insoniyatni jiddiy sinovdan o'tkazdi. Mahalla har bir hududda, hattoki eng chekka qishloqlarda ham fuqarolarning yaqin ko'makchisiga aylandi [1]. Qat'iy karantin talablari yo'lga qo'yilgan o'tgan davrda maxalla orqali fuqarolarga zarur yordam berildi. Mavsumiy daromadidan ayrılgan, ijtimoiy ta'minotga muhtoj ko'plab insonlarga saxovatpesha insonlar, tadbirkorlar ko'magi bilan yordam qo'li cho'zildi. Bu borada mahalla fuqarolarning birinchi murojaat qiladigan, ko'mak so'rab boradigan manziliga aylandi. O'z o'rnida



## Proceedings of International Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Moscow, Russia

Date: 11<sup>th</sup> June, 2023

ISSN: 2835-5733

Website: econferenceseries.com

oilalarda bo‘layotgan turli holatlar, fuqarolarning dardu tashvishi, muammosini yechishda jamiyatimiz asosi bo‘lgan mahalla hal qiluvchi o‘rin tutadi. Shunday ekan bugun har jihatdan mahalla idoralarining imkoniyatlarini oshirish, ularni qo‘llab-quvvatlash bevosita fuqarolarning huquq va manfaatlarining ta’minlanishi hamda inson qadri ustuvorligiga xizmat qiladi. Yangi O‘zbekistonning 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasi va uni 2022 yilda amalga oshirish bo‘yicha “yo‘l xaritasi”ning 3-bandida mahallaning “faol” modelini joriy etish, uni aholi muammolarini bevosita hal qilish hamda hududni rivojlantirish uchun zarur resurs va imkoniyatlar bilan ta’minlash ko‘zda tutilgan. Mahallalarda ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal etishda fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari vakolatlari kengaytirilib, ushbu maqsadda mahallaning alohida jamg‘armasi tashkil etish amaliyotini joriy etish, mahallalarning “o‘sish nuqtalari” va ularda yashovchi aholining tadbirkorlik faoliyatidagi ixtisoslashuvidan kelib chiqib, ularda istiqomat qilib, faoliyat yurituvchi aholini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimi samaradorligi oshirilishiga alohida ahamiyat qaratiladi. Inson qadri biz uchun qandaydir mavhum, balandparvoz tushuncha emas. Inson qadri deganda, biz, avvalo, har bir fuqaroning tinch va xavfsiz hayot kechirishini, uning fundamental huquq va erkinliklarini ta’minlashni nazarda tutamiz. Ta’kidlash joizki, 73 yil avval qabul qilingan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi dunyoda demokratiya va insonparvarlik tamoyillarini qaror toptirish yo‘lida yangi imkoniyatlar ochdi. Mamlakatimizda inson huquqi va erkinliklari demokratik jamiyatning eng oliv qadriyati sifatida namoyon bo‘lishi uchun barcha choralarни ko‘rilmoxda. Fuqoralarning emin - erkin yashash, uy - joy va yer mulkka ega bo‘lish, sog‘liqi saqlash, bilim olish kabi tabiiy huquq va erkinliklarini ta’minlash sohasida katta islohatlar amalga oshirilmoqda [1]. Inson qadri deganda, biz har bir fuqaro uchun munosib turmush sharoiti va zamonaviy infratuzilma tashkil etishni, malakali tibbiy xizmat ko‘rsatish, sifatli ta’lim, ijtimoiy himoya tizimi, sog‘lom ekologik muhit yaratib berishni tushunamiz. Bu maqsadga erishish uchun esa dunyodagi noyob demokratik tuzilma bo‘lgan mahalla institutining katta imkoniyatlaridan samarali foydalanish, uning vakolatlarini yanada kengaytirish, pirovard natijada mahallani jamiyatimizning hal qiluvchi bo‘g‘iniga aylantirish vazifasini o‘z oldimizga qo‘ymoqdamiz. Yurtboshimiz takidlaganlaridek mahalla tinch bo‘lsa, yurt tinch bo‘ladi. Mahalla obod bo‘lsa, butun mamlakat obod bo‘ladi. 2022 yilga

mo‘ljallangan davlat dasturi loyihasining muhokamasi jarayonida aholidan 17 mingdan ziyod taklif kelib tushgan bo‘lib, ularning barchasi yo‘nalishlar bo‘yicha o‘rganilib, dastur loyihasi 300 dan ortiq yangi tashabbus bilan to‘ldirilgani ma’lum qilindi [2]. “Xalqimizning dastur muhokamasidagi faolligi, ularning islohotlarga bo‘lgan ishonchi va daxldorligi ortib borayotgani xalqimiz yurtimizdagi o‘zgarishlar jarayonini, tashabbuslarimizni qo‘llab-quvvatlayotganidan yana bir bor dalolat beradi”, dedi Prezident. Taraqqiyot strategiyasida belgilangan o‘zgarishlar mahallalarning ijtimoiy himoya instituti sifatidagi o‘rnini yanada mustahkamlaydi. Aholi muammolarini hal etishda sifat va samaradorlikni oshiradi [4]. Fuqarolarning farovon turmushi, oilalarning tinchligi, yoshlarning sog‘lom ma’naviy muhitda kamol topishi – bularning barchasi mahallada namoyon bo‘ladi. Demakki, inson qadri avvalo, mazkur go‘shada tug‘iladi, kamol topadi, qadrlanadi va jamiyatning muhim omiliga aylanadi. Yangi O‘zbekistonning 2022–2026 yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasi va uni 2022 yilda amalga oshirish bo‘yicha “yo‘l xaritasi”ni tasdiqlashni nazarda tutuvchi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni loyihasi tayyorlandi. Loyihada mutlaqo yangi yondashuv qo‘llanilib, rejalashtirilgan islohotlar natijadorligini taraqqiyotning maqsadlariga erishganlik darajasi asosida baholash tizimi joriy etilmoqda. Jumladan, Taraqqiyot strategiyasi va uni 2022 yilda amalga oshirish bo‘yicha “yo‘l xaritasi”da mamlakatimizni rivojlantirishning 7 ta ustuvor yo‘nalishi doirasida qariyb 100 ta maqsadlarga erishish nazarda tutilmoqda:

1. Inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish yo‘nalishida quyidagi maqsadlarga erishishga qaratilgan 41 ta chora-tadbir belgilanmoqda:
2. Mamlakatimizdaadolat va qonun ustuvorligi tamoyillarini taraqqiyotning eng asosiy va zarur shartiga aylantirish yo‘nalishida quyidagi maqsadlarga erishishga qaratilgan 28 ta chora-tadbir belgilanmoqda:
3. Milliy iqtisodiyotni rivojlantirish, uning o‘sish sur’atlarini zamon talablari darajasida ta’minlash yo‘nalishida quyidagi maqsadlarga erishishga qaratilgan 133 ta chora-tadbir belgilanmoqda:
4. Adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish yo‘nalishida quyidagi maqsadlarga erishishga qaratilgan 55 ta chora-tadbir belgilanmoqda:

5. Ma'naviy taraqqiyotni ta'minlash, ushbu sohani tubdan isloq qilish va yangi bosqichga olib chiqish yo'nalishida quyidagi maqsadlarga erishishga qaratilgan 33 ta chora-tadbir belgilanmoqda:

6. Umumbashariy muammolarga milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda yechim topish yo'nalishida quyidagi maqsadlarga erishishga qaratilgan 39 ta choratadbir belgilanmoqda:

7. Mamlakatimiz xavfsizligi va mudofaa salohiyatini kuchaytirish, ochiq va pragmatik, faol tashqi siyosat olib borish yo'nalishida quyidagi maqsadlarga erishishga qaratilgan 77 ta chora-tadbir belgilanmoqda.

Aytish joizki, o'tgan davrda yurtboshimiz rahnamoligida ko'plab keng ko'lamli islohotlar amalga oshirildi, qisqa fursatda yurtimizda hayotning barcha jahbalarida tub burilishlar yo'lida dadil qadam tashlanib, misli ko'rilmagan ishlar qilindi. Boshqacha aytganda, O'zbekiston o'z taraqqiyotida yangi bosqichga qadam qo'ydi. Har tomonlama rivojlanayotgan, yangilanayotgan O'zbekistonda iqtisodiyot bilan bir qatorda taraqqiy etgan ilm-fan cho'qqilarini egallagan yoshlarga yuksak madaniyat va milliy ma'naviyat ham zurur ekanligini hayotning o'zi taqazo etmoqda. Shu ma'noda mamlakatimiz istiqbolini yaratuvchilari bo'lgan yoshlarimizni vatanparvar, sadoqatli va yuksak ma'naviyatli qilib tarbiyalashda bor kuchg'ayratimizni safarbar etish barchamizning birinchi galdeg'i vazifamizdir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Mirziyoyev Sh. Yangi O'zbekiston strategiyasi. Toshkent - 2021. "O'zbekiston" nashriyoti. 22.b 2.
2. Sh.M. Mirziyoyev. 2 dekabr kuni bo'lib o'tgan aholini uy-joy bilan ta'minlash dasturi ijrosini samarali tashkil etish, ipoteka kreditlashni kengaytirish va qurilish materiallari sanoatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlariga bag'ishlangan videoselektoridan keltirilgan.
3. Khakimov, S. R., & Sharopov, B. K. (2023). Educational Quality Improvement Events Based on Exhibition Materials in Practical Training Lessons. American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education, 1(2), 5-10.



## Proceedings of International Scientific Conference on Multidisciplinary Studies Hosted online from Moscow, Russia

Date: 11<sup>th</sup> June, 2023

ISSN: 2835-5733

Website: econferenceseries.com

4. Yuvmitov, A., & Hakimov, S. R. (2021). Influence of seismic isolation on the stress-strain state of buildings. Acta of Turin Polytechnic University in Tashkent, 11(1), 71-79.
5. Шаропов, Б. Х., Хакимов, С. Р., & Рахимова, С. (2021). Оптимизация режимов гелиотеплохимической обработки золоцементных композиций. Матрица научного познания, (12-1), 115-123.
6. Ювмитов, А. С., & Хакимов, С. Р. (2020). ИССЛЕДОВАНИЕ ВЛИЯНИЯ СЕЙСМОИЗОЛЯЦИИ НА ДИНАМИЧЕСКИЕ ХАРАКТЕРИСТИКИ ЗДАНИЯ. Acta of Turin Polytechnic University in Tashkent, 10(2), 14.
7. Xakimov, S., & Dadaxanov, F. (2022). STATE OF HEAT CONDUCTIVITY OF WALLS OF RESIDENTIAL BUILDINGS. Science and innovation, 1(C7), 223-226.
8. Yuldashev, S., & Xakimov, S. (2022). ТЕМИР ЙЎЛ ТРАНСПОРТИДАН КЕЛИБ ЧИҚАДИГАН ТЕБРАНИШЛАР ҲАҚИДА. Science and innovation, 1(A5), 376-379
9. Хакимов, С. (2022). АКТИВ ВА ПАССИВ СЕЙСМИК УСУЛЛАРИ ҲАМДА УЛАРНИНГ АСОСИЙ ВАЗИФАЛАРИ. Journal of Integrated Education and Research, 1(2), 30-36.
10. Khamidov, A. I., & Khakimov, S. (2023). Study of the Properties of Concrete Based on Non-Fired Alkaline Binders. European Journal of Geography, Regional Planning and Development, 1(1), 33-39.
11. Khamidov, A., & Khakimov, S. (2023). MOISTURE LOSS FROM FRESHLY LAID CONCRETE DEPENDING ON THE TEMPERATURE AND HUMIDITY OF THE ENVIRONMENT. Science and innovation, 2(A4), 274-279.